

1. **(B-2 ball)** Elektr energiyasidan haqdorlik 40 ming so'm, gazdan qarzdorlik esa 225 ming so'm. Ushbu tavsifga mos keladigan butun sonlar to'g'ri yozilgan javobni toping.

- A) +40000; -225000 B) +40000; +225000
C) -40000; -225000 D) -40000; +225000

2. **(B-2 ball)** Sonlar o'qida $A(-4)$ va $B(3)$ nuqtalar orasida koordinatasi butun son bo'lgan nechta nuqta bor?

- A) 6 ta B) 5 ta C) 7 ta D) 8 ta

3. **(B-2 ball)** Quyidagi ta'rif, tushuncha va aksiomalardan qaysi biri to'g'ri berilgan?

- A) Geometriya – bu geometrik shakllar va ularning xossalarini o'rganuvchi fan.
B) Tekislikdagi shakllarning xossalarini o'rganuvchi bo'lim – stereometriya.
C) Fazodagi shakllarning xossalarini o'rganuvchi bo'lim – planimetriya.
D) Har qanday ikki nuqtadan istalgancha to'g'ri chiziqli o'tkazish mumkin.

4. **(B-2 ball)** Quyidagi jadvalda burchaklar va burchak turlari nomlari keltirilgan. Burchaklarni kattaligiga qarab ularning turlarini mos keltiring.

Burchaklar	Turlari
I. 145°	A. to'g'ri burchak
	B. o'tmas burchak
II. 88°	C. yoyliq burchak
	D. o'tkir burchak

- A) I-B; II-D; B) I-D; II-B; C) I-C; II-D; D) I-B; II-A;

5. **(Q-2,6 ball)** $5|b| + |-a| - |-b|$ ifoda qiymatini $a = -15$ va $b = -24$ bo'lgan hol uchun hisoblang.

- A) 111 B) 159 C) 81 D) 121

6. **(Q-2,6 ball)** Tenglamani yeching: $(-3) + (-8) + x = 7 + (-5)$

- A) 13 B) -13 C) -11 D) 23

7. **(Q-2,6 ball)** Muzlatilgan go'shtning boshlang'ich harorati -18°C . Uni mikroto'lqinli pechda $+15^\circ\text{C}$ gacha isitish kerak. Go'sht har bir daqiqada 3°C ga isiydi. Uni kerakli haroratgacha yetkazish uchun pech necha daqiqaga yoqilishi lozim?

- A) 11 B) 9 C) 3 D) 1

8. **(Q-2,6 ball)** Hisoblang: $(-1)^5 \times (3)^2 - (-4)^3 \div 2$

- A) 23 B) -41 C) 41 D) -23


9. **(Q-2,6 ball)** Hisoblang: $-1\frac{17}{40} - 2\frac{11}{60} + 3\frac{73}{80}$

- A) $\frac{73}{240}$ B) $-7\frac{25}{48}$ C) $4\frac{161}{240}$ D) $-\frac{73}{240}$

10. (Q-2,6 ball) Bir traktorchi ekin maydonini 10 kunda, ikkinchi traktorchi shu maydonni 12 kunda, uchinchi traktorchi esa 15 kunda shudgor qila oladi. Agar uchala traktorchi bir kun birgalikda ishlasa maydonning qancha qismi shudgor qilinmay qoladi?

- A) $\frac{3}{4}$ B) $\frac{1}{4}$ C) $\frac{4}{5}$ D) $\frac{1}{5}$


11. (Q-2,6 ball) AB , BC , CD va DE kesmalar o'zaro teng (rasmga qarang). Agar $AC = a$ bo'lsa, AE kesma uzunligi nimaga teng bo'ladi?



- A) $2a$ B) $4a$ C) a D) $\frac{a}{2}$

12. (Q-2,6 ball) Chizmada berilgan ma'lumotlardan foydalanib, noma'lum burchak $\angle EBD = x$ burchak qiymatini toping.

- A) 50°
B) 40°
C) 45°
D) 30°



13. (Q-2,6 ball) Soatning soat mili 30 minutda necha gradusga buriladi?

- A) 15° B) 30° C) 45° D) $17,5^\circ$

14. (Q-2,6 ball) Uchta to'g'ri chiziq tekislikni eng ko'pi bilan nechta qismga ajratishi mumkin?

- A) 7 B) 6 C) 5 D) 8

15. (M-3 ball) Kamayuvchiga (-19) ni qo'shib, ayriluvchidan (-21) ni ayirsa ayirma qanday o'zgaradi?

- A) 40 ga kamayadi B) 40 ga ortadi C) 2 ga ortadi D) 2 ga kamayadi

16. (M-3 ball) Uzunligi $AB = 15$ cm bo'lgan kesma berilgan. C nuqta AB nurda belgilandi. AC va BC kesmalar uzunliklari yig'indisi uchun quyidagi tasdiqlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

Tasdiqlar	to'g'ri	noto'g'ri
1. $AC + BC = 15$ cm bo'lishi uchun C nuqta faqat A va B nuqtalar orasida bo'lishi kerak.		
2. $AC + BC < 15$ cm bo'lishi uchun C nuqta B dan keyin joylashishi kerak.		

- A) to'g'ri, noto'g'ri; B) noto'g'ri, to'g'ri;
C) to'g'ri, to'g'ri; D) noto'g'ri, noto'g'ri;